

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi kasbiy mahoratini oshirish masalalari

**N.X. Abdullayeva, Sirdaryo viloyati Guliston tumani 3- umumta'lim maktabi II toifali
boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qituvchining bolalar bilan muomalasi ularning ta'lim-tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bolaga bo'lgan muhabbat hech qachon javobsiz qolmaydi. Buning uchun muallim bolalarni sevishi, o'zini bolalarning otasi onasidek his qilishi hamda ularning tarbiyasi va o'qishiga ijobiy ta'sir etuvchi vositalarning barchasini o'zining vazifasi deb bilishi kerak. O'qituvchida pedagogik tajribalar yuqori bo'lishi, pedagogik texnologiya, o'qitish metodlari, pedagogik texnika, o'z-o'zini boshqarish, muloqot va nutq madaniyati orqali o'quvchiga ta'sir qila olishi, pedagogik axloq, o'zaro munosabat, ijobiy natijalarga erishish kabi bilim, ko'nikma va malakalarning namoyon bo'lishi uning ko'p qirrali pedagogik mahoratga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu degani – muallim faoliyatining samarali bo'lishi, uning pedagogik mahoratiga, kasbiy qobiliyatiga bog'liq. Bunda bilish, tushuntira olish, ravon nutq, tashkilotchilik, obro' ottira olish, diqqatni taqsimlay olish qobiliyatlari bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'lib, bularning bari o'quvchi shaxsiga ta'sir etishda bir butunlikni hosil qiladi. Bunday qobiliyatlarga ega bo'lgan o'qituvchi fanni o'quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqur biladi. O'z fani sohasidagi kashfiyotlarni hamisha kuzatib boradi. O'quv materiallarini o'quvchilarga sodda, qiziqarli va tushunarli qilib bayon etadi. O'quv materiallarini o'zgartira oladi. Qiyin va murakkab narsani oddiy va tushunarli qilib o'quvchilarga yetkazadi. Ularning bilim va kamolot darajasi, nimani bilishlari va nimani unutib qo'yganliklarini tasavvur ettiradi.

Kasbiy- pedagogik sohada esa muallim bolalarni, kasbini sevishi, ular bilan ishlashga qiziqishi lozim. Shuningdek, u ziyrak va kuzatuvchan bo'lishi hamda pedagogik tasavvur, bunyodkorlik, tashkilotchilik, haqqoniylik, talabchanlik, qat'iylik, maqsadga intilish kabi xislatlarga ega bo'lishi kerak. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilaridan bilish sohasida keng ilmiy salohiyat, ma'naviy ehtiyoj va qiziqish, yangilikni his qila bilish pedagogik ma'lumotni oshirishga intilish talab etiladi. Shunday ekan ta'lim-tarbiyaning muvaffaqiyatli kechishi uchun pedagog o'z kasbini ng ustasi, fidoyisi bo'lishi kerak. Shu ma'noda bugungi o'qituvchidan yurtimiz kelajagi uchun yangicha fikrlaydigan, ertangi kunga yangicha nigoh bilan qaraydigan, zamon bilan hamnafas komil insonni shakllantirish talab etiladi. Bunday ma'suliyatli vazifani bajarish uchun, avvalo o'qituvchining o'zi keng bilim va yuksak mahoratga ega bo'lmog' lozim. O'z ustida tinimsiz ishlaydigan, izlanuvchan o'qituvchi bu sinovdan muvaffaqiyatli o'tishi shubhasiz. Umumiy o'rta ta'lim fanlari bo'yicha viloyat va tumanlar darajasida nazorat maktablari viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari buyrug'i bilan tashkil etilgan «Mahorat maktabi» faoliyat yuritmoqda. Shu jumladan Guliston tumanidagi 3-umumta'lim maktabi tumanlararo tayanch maktabi hisoblanadi. «Mahorat maktabi»da juda ko'b boshlang'ich tizimini zamon talablariga javob beradigan pedagog kadrlarni uchratish mumkin. Ulardan yosh o'qituvchilarimiz o'z kasbiy mahoratlarini oshirib borish uchun tajribalarni o'rgangadilar va fikrlashadilar.



Бошланғич синф ўқувчиларини нутқини ўстириш

**У.А.Абдуллаева, Андижон вилояти, Пахтаобод тумани ХТМФМТваТЭ бўлими
бошланғич таълим услубчиси**

Бошланғич таълимда ўқувчилар нутқини ўстириш ўқув дастурининг муҳим талабларидан биридир. Ўқувчилар нутқини ўстириш воситалари, асосан она тили, ўқиш, табиат, математика ва бошқа фанларни ўқитиш орқали амалга оширилади.

Ўқувчиларнинг нутқи кўпроқ ўқиш дарсларида эртақ, ҳикоя, шеър, расмлар ва бошқа кичик машқларни ўргатиш йўли билан ўстирилади. Ўқувчиларнинг нутқларини текширишда ўқувчиларнинг бирор расмга қараб ёки берилган мавзуга боғлаб нечта гап туза олишлари, бир дақиқада нечта сўз ўқий олишларига қараб аниқланади. Аммо биз ўқитаётган бошланғич синф ўқувчиларининг оғзаки нутқи дастур талабига тўла жавоб беради, деб бўлмайди. Фараз қилайлик 3-синф ўқувчиси уйдаги дераза ёнида дарс тайёрлаб ўтирибди. Ташқаридаги электр

симиға қалдирғоч келиб кўнди. Агар бир боладан кўрган қалдирғочи ҳақида боғланишли нутқ тузиб бер десак, у нари борса 5 тагача гапдан иборат боғланишли матн туза олади холос. Чунки бола кўп нарсани тасаввур қилавермайди. Ўқувчиларимиз кўрганларини қайта тасаввур қилишга ўрганмаганлар.

Ўқитувчилар ҳар бир дарсни бошлашдан олдин 3-5 минут суҳбат ўтказишади. Бу усулни бошланғич синф ўқитувчиларининг ҳаммалари ҳам амалда қўллаб олмайдилар. Ҳар бир ўқитувчи ҳар кунги биринчи соатларда, ўқиш дарсларида турли мавзулар танлаб дарс бошлашдан олдин 3-5 дақиқа кириш суҳбати ўтказишса, фойдадан холи бўлмайди.

Кўпчилик ўқитувчиларимиз бир синфни тўрт йил ўқитишади. Биз айтмоқчи бўлган мавзу бундай ўқитувчиларга жуда қўл келади. Биринчи синф ўқитувчиси ўқув йилининг 2-ярмидан бошлаб: «Бизнинг боғ», «Бизнинг оила», «Бизнинг кўча», «Бизнинг синф», «Менинг онам», «Бизнинг мактаб», «Она қишлоғим», «Мен севган китоб», «Мустақил Ўзбекистоним», «Мен севган касб», «Ким бўлсам экан», «Мен онамга ёрдамчи», «Менинг дўстим», «Дадам ишдан келсалар», «Баҳор», «Ёзда», «Куз фасли», «Қиш келди» каби 30 – 40 мавзунини ўз ичига олган тарқатмалар тайёрланади.

Тарқатмаларни ҳар бир ўқувчига биттадан берилгач, бир ҳафта давомида олган мавзулари бўйича боғланишли нутқ тузилишлари эслатилади. Келаси ҳафталар давомида ҳар куни

2–3 ўқувчидан топшириққа жавоб олиб борилади. Тарқатмалар бир мартда айлантирилганда ўқувчилар олган мавзулар бўйича боғланишли нутқ тузишлари эслатилади. Келаси ҳафталар давомида ҳар куни 2–3 ўқувчидан топшириққа жавоб олиб борилади. Тарқатмалар бир мартда айлантирилганда ўқувчилар олган мавзуларга 2–5 тадан гап туза олишлари маълум бўлади. 2, 3, 4 -синфларда ҳам бу усул давом эттирилади. Уч йил ичида бир ўқувчига ҳамма тайёрланган тарқатмалар 3–5 мартадан айланиб келишига эришиш лозим. Натижада, 1-синф охирида ҳар бир ўқувчи бир мавзуга 2–3тагача гапдан иборат боғланишли нутқ тузган бўлса, 4-синф охирига келиб, ўша ўқувчи 20–30, ҳатто 40 тагача гапдан иборат боғланишли нутқ туза оладиган бўладилар. Бу усулни қўллашда ўқитувчи эринмаслиги лозим.

Ўқувчилар нутқини ўстиришнинг иккинчи усули ҳақида: бола ҳар куни мактабга келиб-кетеди, меҳмонга боради, турли саёҳатларга боради, дарсдан ташқари пайтларда турли ўйинлар ўйнайди, уй ишларини бажаради. Ана шу даврларда бола кўп нарсаларни учратади. Кишилар билан мулоқотда бўлади. Ҳамма ўқувчилар ҳам ўзлари кузатган воқеа-ҳодисаларни қайта тасаввур қилишга одатлана бермайдилар. Боланинг атроф-муҳитни кузатишлари ва кузатганларини қайта тасаввур қилишлари, кўрганларини қайта фикрлашлари, шулар орқали ўз нутқларини бойитиб боришларига ўқитувчи назорати жуда зарур.

Ўқитувчи ўқувчиларни ёзма нутқини ривожлантиришда расмий тарқатмалардан ҳам фойдаланса ёзув малакаларни шакллантиришда яхши натижаларга эришиш мумкин.

Масалан, расмда кўрган нарсаларни навбат билан ёзадилар. Ҳар куни она тили дарсларида гуруҳлардан биттадан ўқувчи чиқиб хаттахтага ёзадилар. Ўқувчилар хатолари аниқланиб, тўғриланиб ёзилади.

Хулоса қилиб, шуни айтиш мумкинки, ўқувчиларнинг оғзаки нутқларини мунтазам ўстириб боришда, уларнинг атроф-муҳитини кузатишлари ва қайта тасаввур қилдириш орқали боғланишли нутқ, матнлар тузишларига амалий ёрдам беради.

